

Akademik litseyda 8-mart „Xalqaro xotin-qizlar kuni“ munosabati bilan “Bahorning ilk gullariga ehtirom” nomli bayram tadbiri yuqori saviyada tashkil qilindi

Joriy yilning 7-mart sanasida Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida 8-mart „Xalqaro xotin-qizlar kuni“ munosabati bilan **“Bahorning ilk gullariga ehtirom” nomli bayram tadbiri yuqori saviyada tashkil qilindi.**

Akademik litseyda faoliyat yuritayotgan ayol o'qituvchilar, xo'jalik xodimlarining fidokorona mehnati yuksak qadrlanib, esdalik sovg'alari topshirildi va ularga hurmat, ehtirom ko'rsatildi. Shuningdek, akademik litsey iftixori stipendiyasi sovrindorlari va a'lo baholarga, jamoat ishlarida faol ishtirok etgan o'quvchilar faxriy yorliqlar, pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan, ularning ota-onalari tashakkurnoma bilan taqdirlandi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati